

JAGIS MAYDONINING TEKTONIK TUZILISHI

Aliyeva Iroda Shoraxmatovna

Geologiya fanlar universiteti

Sirtqi bo'limi 5-kurs talabasi

Aliyeva1990@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20662335>

Annotatsiya: Janubiy Orolbo'yi mintaqasining yirik tektonik elementi hisoblangan Sudochi egilmasining g'arbiy qismida joylashgan Jagis tuzilmasining geologik va tektonik xususiyatlari tahlil qilingan. Hududning geologik tuzilishi poydevor, oraliq strukturaviy qavat hamda mezozoy-kaynozoy cho'kindi qoplamasidan tashkil topganligi ko'rsatib berilgan. Sudochi egilmasining shakllanishi riftogenez jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, uning grabensimon tuzilishi yirik amplitudali uzilmalar tizimi orqali murakkablashgan. Jagis tuzilmasi Sudochi egilmasining g'arbiy boriga tutashgan mahalliy tektonik ekranlangan braxiantiklinal burma hisoblanadi. Tuzilma yura yotqiziqlari majmuasi bo'ylab kuzatilib, yuqori yura va o'rta yura gorizontlarida turlicha morfometrik ko'rsatkichlarga ega. O'rta yura yotqiziqlarida tuzilmaning maydoni va amplitudasi yuqori yura yotqiziqlariga nisbatan kattaroq ekanligi aniqlangan. Olingan ma'lumotlar Jagis tuzilmasining geologik rivojlanish tarixini aniqlash, uning tektonik tuzilishini baholash hamda uglevodorodlar istiqbolini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Janubiy Orolbo'yi, Sudochi egilmasi, Jagis tuzilmasi, braxiantiklinal burma, tektonika, yura yotqiziqlari, riftogenez, geologik tuzilish, uglevodorodlar.

Tektonik jihatdan **Jagis tuzilmasi** Sudochi egilmasining g'arbiy qismiga to'g'ri keladi.

Janubiy Orolbo'yi yer qobig'i kesimida uchta strukturaviy-litologik qavat ajratiladi. Quyi - poydevor, erta paleozoy yoki tokembriy yoshiga ega. Oraliq struktura qavati Okean qobig'i qatlami - (OQQ) turli darajada metamorfizmga uchragan o'rta-yuqori paleozoy cho'kindi va cho'kindi-vulqonogen hosilalarini o'z ichiga oladi. Shayxoman-Taxtak o'pir kengligidan janubda Paleoseysmologiya - (PSE) tarkibida intruziv tanalar paydo bo'ladi, ular Sultonuizdog' va Bukantovda keng namoyon bo'lgan tektogenezning gersin fazasining hosilalari bo'lishi mumkin. Yuqori qavat - cho'kindi qoplamasi mezozoy-kaynozoyning orto-platforma hosilalaridan hosil bo'lgan.

Poydevorning chuqur joylashgan qismlarida mezozoy-kaynozoy qoplamasi chegaralari va PSE komplekslarining unga konform yotishi kuzatiladi.

Tektonik jihatdan Janubiy Orolbo'yi tarkibida g'arbdan sharqqa qarab qadimgi shakllanish va uzoq muddatli politsiklik rivojlanish bloklarining meridional tizimini shakllantiruvchi Sudochiy egikligi, Taxtakair vali, Taldik egikligi, Oqqal'a pog'onasi va Qindirli ko'tarilmalar zonasi ajralib turadi.

Sudochiy egilmasi janub va g'arbdan Kuanish-Qosqal'a tektonik zonasi, shimoldan Oqtumshuq dislokatsiya tizimining cho'kkan periklinallari, sharqdan Taxtakair, Berdaq vallari, Orol dengiz yorig'i bilan chegaralangan.

Sudochiy egilmasi struktura hosil qiluvchi tektonik elementlarning meridional cho'zilishiga ega. Uning tuzilishini murakkablashtiruvchi yirik amplitudali (0,4-0,8 km gacha) shimoli-g'arbiy vertikal yoriqlar tizimi uning grabensimon tuzilishini ta'minlagan [1].

Bu yerda poydevor 9,5-11,0 km va undan ortiq chuqurlikda yotadi. Uning ustini yura davrigacha bo'lgan qalin (6-8 km gacha va undan ortiq) tog' jinslari komplekslari qoplab yotadi.

Ular, hech bo'lmaganda, yuqori qismida cho'kindi ko'rinishga va qatlamlanishning yotiq turiga ega. Sudoche egilmasining chekka zonalarida paleozoy formatsiyalari yuqori dislokatsiya, qisqargan qalinlik va turli chuqurliklarda namoyon bo'lgan magmatizm mahsulotlarining to'yinganligi bilan ajralib turadi.

Sudoche egilmasining genezisi riftogenez protsesslari bilan bog'liq bo'lib, bu protsess, aftidan, dodekvon davridayoq boshlangan bo'lsa kerak. Sudoche egilmasining bort zonalarida yuqori perm hosilalarining yuzasi 4,0-4,4 km chuqurlikda yotadi. Fleksura-uzilmali zonalar va pog'onalar tizimlari bo'yicha uning depotsentrlariga tomon 4,8-5,6 km gacha cho'kadi.

Sudoche egilmasining shimoliy va g'arbiy hududlarida rivojlangan triasning kulrang yotqiziqlari yuzasi ham xuddi shunday namoyon bo'ladi. Ushbu botiqlikda yura (2,5-3,0 km gacha va undan ortiq), bo'r (1,6-1,8 km) va paleogen (0,5-0,7 km) yotqiziqalarining maksimal qalinligi bilan tavsiflangan cho'kindi qoplarning stratigrafik jihatdan to'liq kesimlari kuzatiladi.

Quyida va o'rta yura yotqiziqlari yuzalarining relyefida, strukturaviy planlarning yuqori yura to'plamlari bilan umumiy mos kelishi bilan, ajratilgan obyektlarning apikal qismlarining siljishi (2,0-5,0 km gacha) aniqlandi.

Quyida o'rta yura yotqiziqlari bo'yicha Berdaq vali eng katta amaliy qiziqish uyg'otadi, bu yerda 2,6-2,9 km chuqurlikda bir qator antiklinal tuzilmalar ajralib turadi - bular Surgil, Shimoliy Orol, Shimoliy Berdaq, Berdaq, Shag'irliq, Shimoliy O'rga va boshqalar, shuningdek, yuqori yura yotqiziqlari relyefida yaxshi ifodalangan.


Berdag validan g'arbda quyida yura yotqiziqlari yuzasi yoriqlar tekisligi bo'ylab katta gradiyent bilan - 3,0 km dan 3,6-3,8 km gacha cho'kadi. Sudoche egilmasining bu qismida 150-200 m gacha amplitudali Orol, Dali va Urga kabi yirik strukturalar ajralib turadi. Yuqori yura yotqiziqlari yuzasi relyefida gipsometrik jihatdan Berdaq vali ham eng ko'tarilgan holatni egallaydi. Uning relyefini shakllantiruvchi dizyunktivlar va antiklinal ko'tarilmalar shimoli-g'arbiy yo'nalishga ega.

Berdag validan g'arbda yuqori yura yotqiziqlari yuzasi fleksura-uzilmali zona bo'ylab keskin (1km da 500m gradiyent bilan) 2,25-2,3 km chuqurlikkacha cho'kadi. Bo'r davri yotqiziqalarining ustki qismi bo'ylab Sudochiy egilmasi asimmetrik tuzilishga ega bo'lib, g'arbiy yonbag'irlari yotiq va sharqiy yonbag'irlari tikroq.

Pasport ma'lumotlariga ko'ra, Jagis tuzilmasi Sudochi egilmasining g'arbiy qirg'og'iga tutashgan mahalliy, tektonik ekranlangan braxiantiklinal burmadan iborat. Mahalliy kichik amplitudali ko'tarilma sifatida, tuzilma yura yotqiziqlari majmuasi bo'ylab kuzatiladi. (1-rasmga qarang).

Tuzilmaning yuqori yura (J₃) bo'yicha o'lchamlari, izogips chegarasida - 2200 m, 1,059 x 0,386 km, maydoni 0,318 km², burma amplitudasi - 10 m.

Tuzilma o'rta yura yotqiziqlari bo'ylab o'lchamlari (J₂), izogips chegarasida - 2920 m, 2,86 x 1,93 km, maydoni 3,893 km², burma amplitudasi - 45 m [2].



Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A. Abidov, Y. Ergashev, M. Qodirov, "Neft va gaz geologiyasi" ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati, Toshkent 2000 y.
2. A. Xojiyev va boshq., Jagis maydonida neft va gaz konlarini (uyumlarini) qidirish loyihasi, Toshkent sh. "NvaGKGhQI" DM fondi, 2020y.